



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**  
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир  
ўринбосари:**  
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**  
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**  
и.ф.д. Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

**Техник муҳаррир:**  
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**  
PhD С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**  
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**  
140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти в.б., DSc

<b>Шавкат Собирович Олтаев</b> Ўзини-ўзи банд қилишда заиф бандликдан унумли бандликка ўтишнинг инновацион йўллари	84
<b>Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова</b> Камбағалликни қисқартиришда ижтимоий хизматларнинг ўрни	88
<b>Farruh Shadiyrovich Shanazarov</b> Essence and content of the concept of poverty	92
<b>Sunnatillo Bakhriddin o‘g‘li Iskandarov</b> Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va funksiyalari	95
<b>ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Анвар Нематович Холикулов</b> Хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини аниқлаш йўллари	99
<b>Komoliddin Jurabayevich Matkarimov, Adxamjan Akbarovich Urinov</b> Transport xizmatlari eksportini modellashtirish va bashoratlash masalalari	103
<b>Shohsanam Nuritdinovna Niyozova</b> Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo‘llari	107
<b>Dilshod Sultanovich Musinov</b> Xizmat ko‘rsatish sohasida investitsion loyihalar samaradorligini oshirish yo‘llari	112
<b>Aziza Tolibovna Raxmonova</b> Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligi	117
<b>Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy aloqa xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyatlari	123
<b>Нигина Бахтиёрвна Рузиева</b> Изучение инновационного развития сферы услуг в зарубежных странах	127
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Suxrob Ramazonovich Bobokalonov</b> Jozibador turistik destinatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili	130
<b>Malika Axmad qizi Qurbonova</b> Turizm va mehmonxona xizmatlarining aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik darajasi va uning iqtisodiy barqarorligiga ta‘siri	135
<b>Abduvoxid Quldoshevich To‘rayev</b> Turizmدا hududlar salohiyatidan oqilona foydalanishning nazariy asoslari va tamoyillari	140
<b>Ойдин Давроновна Хамракулова</b> Зеленая экономика и экологический туризм в экономике Узбекистана	143
<b>Шоҳижаҳон Худоёр ўғли Мухитдинов</b> Туризм хизматлари бозорининг ишлаш механизмини оптималлаштириш жараёни	147
<b>Матлубахон Абдиманабовна Куймуратова</b> Туризм соҳасини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларининг назарий масалалари	152

realizatsiya qilish asosida xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish taklifi asoslanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-iyuldagi “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi RQ-4752-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi RQ-5113-sonli Qarori.
3. “Pardayev M.Q., Mamasoatov T.X., Pardayev O.M., Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya-iqtisodiy o‘shishning muhim omillari. Monografiya.-T.: “Navro‘z”, 2014. -104 bet,
4. Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J., Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2014. – 384 b.
5. Musinov D.S “Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy o‘shishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish” // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi Xorazm Ma‘mun akademiyasi Axborotnomasi. Ilmiy jurnal-№4/2 (100), 2023. – B. 167-172.
6. Musinov D.S. Xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy o‘shish omili sifatida // Servis. – 2023, №4/2. – B. 86-94.
7. Musinov D.S Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini strategik rivojlantirish xususiyatlari // SamDU jurnali. – №5, 2023. – B. 176-184.
8. Musinov D.S. Xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy o‘shish omili sifatida // Ijtimoiy-gumanitar ganlarning dolzarb muammolari jurnali. №12/1(3)-2023. B. 349-359. <https://ssienserproblems.uz>

<p><b>Д.Мусинов</b></p> <p><b>Пути повышения эффективности инвестиционных проектов в сфере услуг</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье изучены достижение экономического роста за счет повышения эффективности инвестиционных проектов в сфере услуг, развитие инвестиционных проектов в сфере услуг, описание основных критериев и показателей определения социально-экономической эффективности.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> предоставление услуг, эффективность, социальные показатели, экономические показатели, экономический рост, инвестиции, инвестиционные проекты, инновации, сервис.</p>	<p><b>D.Musinov</b></p> <p><b>Ways to improve the efficiency of investment projects in the service sector</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article examines the achievement of economic growth by increasing the efficiency of investment projects in the service sector, the development of investment projects in the service sector, and a description of the main criteria and indicators for determining socio-economic efficiency.</p> <p><b>Keywords:</b> provision of services, efficiency, social indicators, economic indicators, economic growth, investments, investment projects, innovations, service.</p>
--	--

**Aziza Tolibovna Raxmonova** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

**XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH SAMARADORLIGI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining mohiyati ko‘rib chiqilib, "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, oilaviy tadbirkorlik faoliyatida dastlabki kapitalni shakllantirish yo‘llari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xizmatlar, tadbirkorlik, biznes, moliya, kredit, kapital, bank, daromad, xarajat, aktivlar.

**Kirish.** Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va bu jarayonlarda bank-moliya tizimining rolini oshirish ustuvor vazifalarda belgilangan.<sup>1</sup> Xizmat ko‘rsatish

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида. 2017 йил 7 февраль, ПФ – 4947-сон.

sohasining rivojlanishida bank- moliya tizimining roli muhim bo‘lib, ular ko‘plab tadbirkorlik loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda sezilarlidir. Bu borada, oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ham shular jumlasidan.

Shulardan kelib chiqib, mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-193 son qarorlari, 2020 yil 16 iyundagi PQ-4752-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarito‘g‘risida” hamda 2021-yil 27-martdagi PQ-5041-son “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O‘zbekistonda oila xo‘jaligi tadbirkorligining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi, oilaviy tadbirkorlik salohiyatini oshirish yo‘llari, xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolarini A.O‘lmasov, H.P.Abulqosimov, A.A.Qulmatov, U.D. Axmedov, B.Berkinov, M.K. Pardayev, O.M. Pardayeva, I.L. Pugach, R.B. Murtazina, G.M. Shadiyeva, D.T.Yuldashev<sup>8</sup> va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari ushbu yo‘nalishda qilingan ilmiy ishlar ichida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega, ammo xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlik rolini oshirishning metodologik jihatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar tadqiqotlari doirasidan chetda qolgan. Xususan, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlik rolini baholash uslublarini takomillashtirishning metodologik masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Bundan tashqari, xizmat ko‘rsatish sohasi va oilaviy tadbirkorlikni bir-biriga uzviy bog‘liqlikda va butun bir yaxlit holda o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ham yetarli emas. Yuqorida qayd etilgan fikrlar tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani tayyorlash va tegishli xulosalarni shakllantirishda mantiqiy, iqtisodiy va qiyosiy tahlil, makon va zamon, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv kabi tahliliy usullardan foydalanilgan.


**Tahlil va natijalar.** Ma‘lumki, har qanday tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishda dastlabki kapitalni shakllantirish eng muhim va tezkor hal etilishi lozim bo‘lgan masala hisoblanadi. Shu bois, tadbirkorning bu borada ikkita yo‘li bor. Birinchisi oila mulki va aktivlarini jalb etish bo‘lsa, ikkinchisi bank va nobank kredit mablag‘larini jalb etishdir. Agar oilaning dastlabki kapitali yetarli deb baholansa, u holda kredit mablag‘lariga zarurat bo‘lmaydi va aksincha. Bu borada o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra (Global Family Business Survey 2018<sup>1</sup>), oilaviy biznes sohiblarining 81%i moliyalashtirish ehtiyojlari uchun banklarga ko‘proq tayanishda davom etishi, uchdan bir qismidan ko‘prog‘i esa xususiy sarmoyalarga tayanishini ta’kidlagan. Bulardan kelib chiqib aytish mumkinki, tadbirkorlik kapitalini shakllantirishda oilalarning o‘z imkoniyatlarini baholash o‘ta muhim masala ekan.

Mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikga bank xizmati ko‘rsatish va kreditlash tartibi O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunining 29-moddasida belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari so‘nggi yillarda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli jamg‘armalar va vakolatli banklar ham ko‘paydi. Hozirgi kunda ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning asosiy manbalari, maqsadlari va bu jarayondagi vakolatli banklari belgilab qo‘yilgan (1-rasm).

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatida dastlabki kapitalni shakllantirish nihoyatda muhim. O‘tkazilgan so‘rov<sup>2</sup> natijalariga ko‘ra, respondentlarning har biri tadbirkorlikni boshlash yoki biror bir iqtisodiy faoliyat turi bilan shug‘ullanish istagi borligini qayd etishgan. Shuningdek,

<sup>1</sup>. <https://www.pwc.com/gx/en/services/family-business/family-business-survey-2018.html>

<sup>2</sup>. Самарқанд вилоятида муаллиф томонидан ўтказилган сўров натижалари  
<https://docs.google.com/forms/d/1bm83mqUQ6LaMx7WIrOrTp5X96sZ5nH7-0DzGbsInkS0/edit#responses>



**1-rasm. Oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning amaldagi mexanizmi**<sup>1</sup>

“Biznes faoliyatingizni moliyalashtirish manbalarini ko‘rsating?” degan savolga respondentlarning 76,6 %i “bank va o‘z mablag‘larim hisobiga” deb javob berishgan. Bundan ko‘rinadiki, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillardan eng asosiysi moliyaviy omil ekan. Chunki oilalarning ko‘pchiligi buning uchun yetarli mablag‘ga ega emasligi va bu borada bank kreditlariga ehtiyoji borligini ma‘lum qilishgan. Ularning

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги “Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5242-сон, 2018 йил 2 февралдаги “Хотин – қизларни қўллаб – қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5466-сон Фармонлари, 2018 йил 26 апрелдаги “Фермер, деҳқон хўжаликлари ва таморқа ер egalari фаолиятини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3680 – сон, 2018 йил 7 июндаги ““Ҳар бир оила - тadbirkor” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги ПҚ-3777 – сон, 2018 йил 14 июлдаги “Аҳоли бандлигини таъминлаш борасидаги ишларни такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3856 – сон ва 2019 йил 7 мартдаги “Худудларда аҳолини тadbirkorликка кенг жалб қилиш ва оилавий тadbirkorликни ривожлантиришга доир қўшимча чора- тadbирлар тўғрисида”ги ПҚ-4231-сон, 2019 йил 24 октябрдаги “Оилавий тadbirkorликни ривожлантириш давлат дастурлари доирасида амалга оширилаётган лойиҳаларни кредитлаш тартибини такомиллаштириш қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари асосида муаллиф томонидан тузилган

(respondentlar) fikricha hozirgi sharoitda tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan oila kamida 20-25 mln. so‘m mablag‘ jalb qilishi kerak bo‘ladi. Jamg‘arma shaklidagi bunday mablag‘ga so‘ralgan oilalarning aksariyati ega emas.

Demak, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda aholi daromadlari ham muhim omil ekan. Uy xo‘jaliklari daromadlarini o‘rganish borasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 8 %i oyiga 1-2 mln. so‘m, 39 %i oyiga 2-4 mln. so‘m, 31 %i 4-6 mln.so‘m va 22 %i 6 mln. va undan yuqori daromadga ega bo‘lganlar guruhiga kirgan<sup>1</sup>. Bundan ko‘rinadiki, aholining asosiy qismi (39 %i) daromadlari 2 - 4 mln. so‘mni tashkil etgan. Agar bundan oziq-ovqat va noziq ovqat tovarlari va xizmatlariga bo‘lgan xarajatlarni chegirsak, qolgan qismi dastlabki kapital sifatida tadbirkorlikni boshlash uchun yetarli bo‘lmaydi. Albatta, bundan uy xo‘jaliklarining 4-6 mln. so‘m daromadga ega bo‘lgan 31 %i va 6 mln.so‘mdan yuqori daromadga ega bo‘lgan 22 %i bundan mustasno. Chunki bu guruhga mansub uy xo‘jaliklarining daromadlari jamg‘armalarni hosil qilishga yetarli bo‘ladi. Umum hisobda, bunday imkoniyatga uy xo‘jaliklarining 53%i ega xolos, 47 %i esa kredit mablag‘lariga muhtoj.

“Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF- 5242-son, 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin – qizlarni qo‘llab – quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF- 5466-son Farmonlari, 2018 yil 26 apreldagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tamorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3680 – son, 2018 yil 7 iyundagi ““Har bir oila - tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3777 – son, 2018 yil 14 iyuldagi “Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3856 – son va 2019 yil 7 martdagi “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4231-son, 2019 yil 24 oktyabrdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida tuzilgan.

Aholining tadbirkorlik faolligini oshirish va ularning kreditga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish borasida samarali choralar ko‘rilmoqda. Bu borada, tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash asosida sezilarli natijalarga erishilgan. Xususan, 2018-2019-yillarda respublikamiz bo‘yicha kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratilgan jami kreditlar 86078,8 mlrd.so‘mni tashkil etgan (3.4-jadval).

1- jadval

**Kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga ajratilgan kreditlar, mlrd.so‘m**

Asosiy yo‘nalishlar	2018 yil	2019 yil	2020 yil
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar, jami	30648,8	55430,0	48 389,7
<i>shundan</i>			
Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga	668,4	1136,1	6078,5
Xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishga	6547,8	8772,2	5959,8
Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga	3561,7	4499,8	4895,9
Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun	1748,5	4906,3	3602,1

Shundan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga barcha manbalar-dan ajratilgan kreditlar 2018 yilda 668,4 mlrd.so‘m (2,2 %), 2019 yilda esa 1136,1 mlrd. so‘m (2,0

<sup>1</sup> Марказий банк томонидан ҳудудлар кесимида даромадлар даражаси бўйича олиб борилган сўров натижалари. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Ахборот-таҳлилий маълумот ТУРМУШ ДАРАЖАСИ ВА ИНФЛЯЦИЯ. Тошкент -2020 йил, 11 бет.

%) to‘g‘ri kelgan. Umum hisobda shu ikki yilda jami ajratilgan kreditlar (668,4 mlrd.so‘m + 1136,1 mlrd.so‘m) 1804,5 mlrd.so‘mni yoki uning ulushini 4,2 %ni tashkil etgan.

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishga barcha manbalardan ajratilgan kreditlar 2018-yilda 6547,8 mlrd.so‘m (jami ajratilgan kreditlarning 21,3 foizi), 2019 yilda esa 8772,2 mlrd.so‘m (jami ajratilgan kreditlarning 15,8 foizi) to‘g‘ri kelgan. Umum hisobda shu ikki yilda jami ajratilgan kreditlar (6547,8 mlrd.so‘m + 8772,2 mlrd.so‘m) 15320,0 mlrd.so‘mni yoki uning ulushi 21,8 foizni tashkil etgan (1-jadval).

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga barcha manbalardan ajratilgan kreditlar 2018-yilda 3561,7 mlrd.so‘m (jami ajratilgan kreditlarning 11,6 foizi), 2019-yilda esa 4499,8 mlrd.so‘m (jami ajratilgan kreditlarning 8,1 foizi) to‘g‘ri kelgan. Umum hisobda shu ikki yilda jami ajratilgan kreditlar (3561,7 mlrd.so‘m + 4499,8 mlrd.so‘m) 8061,5 mlrd.so‘mni yoki uning ulushi 19,7 foizni tashkil etgan (1-jadval).

Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun boshlang‘ich kapital sifatida berilgan kreditlar 2018 yilda 1748,5 mlrd.so‘m (jami ajratilgan kreditlarning 5,7 foizi), 2019 yilda esa 4906,3 mlrd.so‘m (jami ajratilgan kreditlarning 8,9 foizi) to‘g‘ri kelgan. Umum hisobda shu ikki yilda jami ajratilgan kreditlar (1748,5 mlrd.so‘m + 4906,3 mlrd.so‘m) 6654,8 mlrd.so‘mni yoki uning ulushi 14,6 foizni tashkil etgan (3.1-jadval). Umumiy hisobda kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar 2019 yilda 55430,0 mlrd.so‘mni (2018 yilda 30648,8 mlrd.so‘m), soni jihatidan 414457 ta (2018 yilda 321018 ta)<sup>1</sup> ni tashkil etgan.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, tadbirkorlik faoliyatining barcha shakllari bo‘yicha ajratilgan mablag‘lar o‘tgan yilga nisbatan ancha ko‘p. Biroq, ular faoliyatini rivojlantirish bir tomondan ajratilayotgan kreditlar hajmiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan ajratilgan kreditlarning natijadorligiga ham bog‘liq bo‘lmoqda. Agar, 2019-yilda respublika bo‘yicha oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ajratilgan mablag‘lar 1136,1 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shu davrda yaratilgan yangi oilaviy korxonalar soni 11138<sup>2</sup>ani tashkil etgan. Yoki, boshqacha aytganda har 1 mlrd. so‘m ajratilgan mablag‘ga 9,8 tayangi oilaviy korxonalar tashkil etilgan.

Mazkur yo‘nalishda ajratilgan mablag‘lar natijadorligini yaratilgan ish o‘rinlari bilan ham baholash mumkin. Misol uchun, Shovot tumanida 26 milliard so‘m oilaviy kredit ajratilib, 1,5 mingta ish joyi yaratilgan. Bunda har bir yaratilgan yangi ish o‘rni 17,3 mln so‘mga to‘g‘ri kelgan. Yoki boshqacha aytganda, 1 milliard so‘m kreditga 56 ta yangi ish o‘rni to‘g‘ri kelgan. Bu ko‘rsatkich Qo‘shrabotda 57 ta, Muzrabotda 49 tani tashkil etgan.<sup>3</sup>

Xuddi shu tahlil davrida, Samarqand viloyati tijorat banklari tomonidan “Har bir oila - tadbirkor” dasturi bo‘yicha 4723 ta loyihaga 101 milliard 699 million so‘m miqdorida kreditlar ajratilgan<sup>4</sup>. Agar ushbu ajratilgan kredit mablag‘larini har bir loyihaga (101699000000:4723) taqsimlasak 21 million 532 ming so‘mni tashkil etadi. Shu o‘rinda, «Har bir oila - tadbirkor» dasturiga<sup>5</sup> muvofiq oilaviy tadbirkorlikka beriladigan kreditlar eng kam ish haqining 150 baravaridan (25 mln 836 ming so‘m) – 1000 (172 mln 240 ming so‘m (05.08.2020 y holatiga)) baravarigacha bo‘lgan miqdorda berilishi belgilangan. Agar shu mezonga asoslanib, dasturda belgilangan va haqiqatda ajratilgan kredit mablag‘lari solishtirilganda (25836000 so‘m dastur bo‘yicha – 21532000 so‘m haqiqatda) = 4304000 so‘m keskin tofovutni kuzatish mumkin. Boshqacha aytganda, haqiqatda ajratilgan mablag‘lar dastur doirasida ko‘zda tutilganidan 4304000 so‘mga kam. Tabiiyki, bunday holat oilaviy tadbirkorlikni hududlar rivojlanishidagi o‘rni yoki uni qo‘llab-quvvatlashdan ko‘zlangan samarani ta‘minlab bera olmaydi.

Samarqand viloyati bo‘yicha “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida qilingan xarajatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, haqiqatda ajratilgan mablag‘lar hisobiga 4723 ta tadbirkorlik

<sup>1</sup> <http://www.cbu.uz/upload/medialibrary/966/Markaziy-bankning-Statistik-byulleteni--2020-yil-I-chorak.pdf>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари

<sup>3</sup> <https://review.uz/oz/post/moliya-vazirligi-1-trillion-somni-oilaviy-tadbirkorlik-uchun-resurs-sifatida-banklarga-joylashtiradi>

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Самарқанд вилоят бошқармаси маълумотлари

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги ПҚ-3777-сон “Хар бир oila – тadbirkor” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги Қарори.

subyektlari tashkil etilgan. Agar dasturda belgilangan miqdorda moliyalashtirilganda edi yana 944 ta yoki jami 5667 ta (4723+944) tadbirkorlik subyektlari tashkil topgan bo‘lar edi. Shular asosida hisob-kitob qilganda dastur doirasida qilingan har bir so‘m xarajatlarning qiymati 1,2-1,3 so‘m samara bergan. Demak, shunday samaraga teng summaga oilaviy tadbirkorlikni kreditlash uchun qilinadigan xarajatlarni oshirish mumkin bo‘lgan.

“Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida kreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomga<sup>1</sup> muvofiq imtiyozli kreditlash shartlari va normalari keltirilgan bo‘lib, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish asosiy maqsad etib belgilangan. Biroq, dastur doirasida ajratiladigan kreditlardan bir qator maqsadlarda foydalanib bo‘lmasligi qayd etilgan. Shular qatorida savdo-vositachilikni amalga oshirish va umumiy ovqatlanish tashkilotlarining aylanma mablag‘larini shakllantirish maqsadlarida imtiyozli kreditlashning amal qilmasligi belgilab qo‘yilgan. Bunday cheklovlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lganlarning aksariyatining xohishini inkor etmoqda. Xususan bu borada o‘tkazilgan so‘rovda “biznesning qaysi faoliyat turini tanlagan bo‘lardingiz?” degan savolga respondentlarning 34,5 % savdo-vositachilik va 11,2 % - umumiy ovqatlanish faoliyati bilan shug‘ullanish istagi borligini ma‘lum qilgan. Agar shu fikrlar inobatga olinadigan bo‘lsa mazkur faoliyat turlarini dastur doirasida imtiyozli kreditlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki bunday faoliyat turlarida oilaviy tadbirkorlikning keng ixtisoslashuvi xizmatlar sohasining rivojlanishida bir qator qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratadi. Xususan, hozirgi kunda respublikamiz bo‘ylab taomlanish yo‘nalishidagi sayohatlarning ommalashib borishi, ayniqsa Samarqandshahrini “gastronomik turizm” yo‘nalishida rivojlantirish borasidagi hududiy dasturni amalga oshirishda ushbu faoliyat turlari munosib hissa qo‘shishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan foydalangan holda quyidagi taklif, tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- Tadbirkorlik subyektlarining kreditga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘la qondirishda nobank kredit tashkilotlari faoliyatini kengaytirish;
- Oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda kredit uyushmalarining roli yanada oshirish;
- Tadbirkorlikning faoliyat turini o‘rganib chiqqan holda kreditlash jarayonida imtiyozli davrlardan foydalanish;
- Zamonaviy xizmatlarni tashkil etgan tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;
- Kam ta‘minlangan oilalarga mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishni rag‘batlantirish;
- Xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini faol jalb qilish va o‘zlashtirish.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj uy xo‘jaliklarini to‘liq qamrab olish masalalari hamon dolzarbligicha qolmoqda. Bunday muammolarni bartaraf etishning samarasiz tizimi isloh qilinib, yangi ijtimoiy himoya institutlari vujudga keltirildi. Jumladan, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish va Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirliklari tashkil etildi. Bu muassasalar faoliyatining bosh vazifasi esa, davlatning kambag‘allikni qisqartirish va oilalarni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi adolatli siyosatini ro‘yobga chiqarish hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2- fevraldagi “Xotin- qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 martdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5041 – sonli Qarori.
3. Korulina V.N., Ostapenko D.V. Noviy ekonomicheskii slovar. R n/D: Feniks, 2006, s.256.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/4672421> («Хар бир оила — тadbirkor» dasturi doirasida kreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom).

4. Pardayev M.Q., Qurbonov Z. N Oila biznesi va tadbirkorligi. Samarqand: SamKI, 1999. - 18-b.
5. Muxammedov M.M., Mardonov B.B. Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligi va daromadlari. Monografiya. «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi». 2021. 186 b
6. Raxmonova A.T "Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda onlayn platformalarning o'rni" Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali Vol. 4 Issue 03 | pp. 356-365 | ISSN: 2181-1865 Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

<p><b>А.Рахмонова</b></p> <p><b>Эффективность финансовой поддержки семейного бизнеса в развитии сферы услуг</b></p>	<p><b>A.Rakhmonova</b></p> <p><b>Effectiveness of financial support of family business in the development of the service sector</b></p>
<p><b>Аннотация.</b> В данной статье рассмотрена сущность системы финансовой поддержки семейного бизнеса в развитии сферы услуг, работа, проводимая в рамках программы "Каждая семья - предприниматель", а также способы формирования первоначального капитала в семейной предпринимательской деятельности.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> услуги, предпринимательство, бизнес, финансы, кредит, капитал, банковское дело, доходы, расходы, активы.</p>	<p><b>Abstract.</b> This article examines the essence of the financial support system for family business in the development of the service sector, the work carried out within the framework of the program "Every Family is an Entrepreneur", and the ways of forming initial capital in family business activities.</p> <p><b>Keywords:</b> services, entrepreneurship, business, finance, credit, equity, banking, income, expense, assets.</p>

**Hamdam Iris o'g'li Allayorov** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

### RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY ALOQA XIZMATLARI BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimiz milliy aloqa xizmatlari bozorini rivojlantirishda xorij tajribasi, shuningdek aholining axborot tizimiga bo'lgan qarashlari va aloqa xizmatlari sohasini boshqarishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, kommunikatsiya, raqam, elektron, texnologiya, yo'l xaritasi.

**Kirish.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan bugungi globallashuv sharoitida mazkur sohaning ilg'or yutuqlarini barcha tarmoq va jabhalarga keng joriy etish mamlakatimizning kelgusi ravnaqida muhim omil hisoblanadi. Zero, axborot texnologiyalari bozorining zarur tarkibiy qismi bo'lgan dasturiy mahsulotlar industriyasi milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirishda, raqobatda ustuvorlikka erishishda, valyuta tushumlarining ko'payishida, import o'rnini bosuvchi milliy mahsulotlar ishlab chiqarish siyosatini amalga oshirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Dasturiy mahsulotlarni qisman yoki to'liq ishlab chiqish, ularni jahon bozoriga olib chiqish, eksport qilishni keng joriy etgan xorij tajribalari, xususan Koreya, Hindiston, AQSH, Xitoy mamlakatlari misolida olib qarasa, shundan dalolat beradiki, dasturiy mahsulotlar industriyasini rivojlantirish har bir sohaga axborot texnologiyalarini keng joriy etishga, aholini ish bilan bandligini oshirishga, intellektual mulkni shakllantirish va rivojlantirishga, davlat eksport salohiyatini kuchaytirishga, investitsiyalar jalb etishga, natijada esa, mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga olib keladi. Koreya, Hindiston, Xitoy va boshqa davlatlarning boy tajribasini o'rgangan holda bugungi kunda O'zbekistonda ham axborot texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda axborot texnologiyalarini rivojlantirish borasida huquqiy baza shakllangan bo'lib, «Aloqa to'g'risida»gi, «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi, «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi, «Axborotlashtirish to'g'risida»gi, «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi va boshqa qator Qonunlar, qonunosti hujjatlari shular jumlasidandir. Sohaga oid 11 ta qonun, 40 dan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.